



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

2. Simvol: “Ustoz – Yo‘l ko‘rsatuvchi”

Hikoyadagi ustoz obrazi shunchaki personaj emas, balki konseptual belgidir. U shogirdni tashqi yuksalishdan ichki anglash sari yo‘naltiradi:

“Ustozim menga qarab: Pillapoyalarning oxiri yo‘q, sen o‘zingni ichingdan topishing kerak, dedi.”

V.A. Maslova konseptlarni “madaniy kod” sifatida talqin qilgan. Bu yerda ustoz obrazi — Sharqona qadriyatlarning kodlangan ifodasi bo‘lib, bilim va tajribaning timsolidir (V.A.Maslova, 2004, 60).

3. Ramz: “Balandlik – Ruhiy yuksalish”

Hikoya davomida qahramon balandlikka erishaman deb o‘ylaydi, lekin har safar yangi pillapoyalar ochiladi:

“Men cho‘qqiga yetdim deb o‘yladim, ammo qarshimda yana pillapoyalar ochildi.”

Bu ramz insoniyatning tuganmas izlanishi va ruhiy evolyutsiyasi haqidagi universal g‘oyani mujassam etadi. Karl Jung ta’kidlaganidek, balandlik obrazi insoniyat arxetipik xotirasida **ruhiy kamolotning ramzi** sifatida shakllangan (Carl Jung, 1968, 27).

4. Qo‘shimcha konseptlar

To‘xtash – Tan olish: Qahramon ustozning nasihatidan so‘ng to‘xtab, ichki dunyosiga murojaat qiladi. Bu — hayotiy saboq qabul qilishning konseptual modeli.

• **Ichkariga qarash – Haqiqiy ma’no:** Ustozning “ma’no ichingda” degan gapi inson tafakkurida tashqi va ichki qidiruvning oppozitsiyasini ochib beradi.

Metafora, simvol va ramzning “Pillapoya” hikoyasidagi ifodasini quyidagi jadvalda umumlashtirish mumkin

Ifoda vositasi	Hikoyadagi namuna	Konseptual mazmuni
Metafora	“Odamlarning oqimi xuddi pishqirib oqayotgan daryoni eslatardi.”	Hayot yo‘lidagi odamlarning umumiy harakati, taqdir oqimi.
Simvol	“Zinalar bo‘ylab ko‘tarilish, bir qarashda, sport musobaqasini yodga solardi.”	Insonning maqsad sari kurashi va raqobat muhiti.
Ramz	“Ayolning nigohida ‘Charchadim, qushga aylangim kelyapti...’ degan ishorat bor edi.”	Insonning erkinlik, xalos bo‘lish va o‘limni quchoqlash istagi.
Metafora	“Men oqimning ichida oqim paydo qildim.”	Shaxsning o‘z yo‘lini topishi, individual taqdir oqimi.

Ramz	“Ustozning nigohida boshqa mazmun xira tortib turardi.”	Avlodlar o‘rtasidagi tajriba va hayot falsafasining o‘tishi.
Simvol	“Pillapoya bo‘ylab yuqoriga talpinish”	Insonning ruhiy va ma’naviy yuksalishga intilishi.

“*Pillapoya*” hikoyasining konseptual qatlamlari **kognitiv metafora nazariyasi**, **lingvomadaniy konsept tahlili** va **arxetip nazariyasi** asosida quyidagicha izohlanadi:

Metafora nuqtayi nazaridan

Lakoff va Johnson metaforani inson tafakkurining markaziy mexanizmi sifatida izohlaydi. Hikoyadagi “pillapoya – hayot yo‘li” modeli abstrakt hayot tushunchasini konkret tasvir orqali idrok qilish imkonini beradi. Shuningdek, “ko‘tarilish – yuksalish”, “to‘xtash – saboq olish” kabi kichik metaforalar ham matnda faol ishlaydi.

Simvolik qatlam

Karasik konseptlarni kommunikativ-pragmatik birlik sifatida talqin qiladi. Hikoyada ustoz va shogird muloqoti shaxsiy tajribadan umumiy qadriyatga ko‘tariladi. Simvolik ma’noda ustoz — Sharq madaniyatidagi doimiy konseptual obraz bo‘lib, qadimiy hikmat an‘analari bilan bog‘liq (Karasik V.I., 2002, 10).

Ramziy qatlam

Karl Jung ramzlarni insoniyatning kollektiv ongini shakllantiruvchi arxetiplar deb bilgan. Hikoyadagi pillapoya va cho‘qqi ramzlari o‘zida **arxetipik yo‘l va balandlik** g‘oyalarini mujassamlashtiradi. Bu esa hikoyani umumbashariy falsafiy darajaga olib chiqadi (Carl Jung, 1968, 37).

Lingvomadaniy talqin

Pillapoya ham, ustoz ham o‘zbek madaniyatida chuqur ildizga ega ramziy birliklardir. Pillapoya — o‘shish, sinov, ustoz — donishmandlik va tajriba timsoli sifatida xalq tafakkurida qadimdan mavjud.

Muallifning hikoyada qo‘llagan uslubi ramziy va metaforik qatlamlarning uyg‘unlashuvi bilan ajralib turadi. Asarda ishlatilgan **pillapoya metaforasi** inson hayoti, o‘shish va ma’naviy yuksalish jarayonining timsoli sifatida xizmat qiladi. Ushbu tasviriy vosita nafaqat voqealar rivojini ifodalaydi, balki kitobxonni chuqur falsafiy mulohazaga chorlaydi.

Muallifning badiiy uslubi bir necha jihatdan o‘ziga xosdir:

- **Konseptual qatlamning kuchliligi** – oddiy hayotiy detal ramziy ma’noda umumlashib, insoniy taqdirni ifodalashga xizmat qiladi.
- **Minimalizm va mazmunning zichligi** – ortiqcha tasvirlardan qochib, qisqa va lo‘nda jumlar orqali chuqur g‘oya beriladi.

- **Milliylik va universallik uyg'unligi** – muallif xalqona ramzlardan foydalanib, ularni umuminsoniy falsafiy mazmunga bog'laydi.

Muallif badiiy vositalardan nafaqat estetik zavq uyg'otish, balki **inson tafakkuri va ma'naviy izlanishlarini yoritish** maqsadida foydalanadi. Shu bois uning uslubi mazmuniy teranlik, poetik ixchamlik va konseptual yondashuvning uyg'unlashuvi bilan xarakterlanadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, Ulug'bek Hamdamning "Pillapoya" hikoyasida metafora, simvol va ramzlar nafaqat badiiy tasvir vositasi, balki konseptual mazmunni ochib beruvchi asosiy element sifatida xizmat qiladi. Hikoyadagi pillapoya obrazi inson hayot yo'li, ma'naviy o'sish va ichki izlanishning ramzi bo'lib, kitobxonni o'z hayotiy tajribasini qayta anglashga undaydi.

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy natijalarga erishildi:

- **Metafora** – hayotiy bosqichlarning konseptual talqinini beradi.
- **Simvol** – milliy va madaniy qadriyatlar bilan bog'langan holda, universallik kasb etadi.
- **Ramz** – muallifning badiiy uslubida markaziy o'rin tutib, falsafiy mazmunni kuchaytiradi.

Muallifning uslubi ixchamlik, falsafiy teranlik va milliylik bilan uyg'un bo'lib, zamonaviy o'zbek adabiyotining kognitiv yo'nalishdagi rivojini yaqqol namoyon etadi. "Pillapoya" hikoyasidagi ramziy qatlamlar o'zbek xalqining dunyoqarashi bilan uyg'unlashib, kitobxon ongida yangi konseptual maydon hosil qiladi.

Demak, metafora, simvol va ramzlarning konseptual ifoda vositasi sifatidagi tadqiqi nafaqat adabiy matnni tushunishga yordam beradi, balki o'zbek adabiyoti namunalarida **kognitiv tilshunoslikning qo'llanish imkoniyatlarini** kengaytiradi. Shu jihatdan ushbu maqola keyingi tadqiqotlar uchun nazariy hamda amaliy manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

Lakoff G., Johnson M. (1980). *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press.

Jung, C. G. (1968). *Man and his symbols*. London: Aldus Books.

Карасик В. И. (2002). *Языковой круг: личность, концепты, дискурс*. Волгоград: Перемена.

Маслова В. А. (2004). *Когнитивная лингвистика*. Минск: ТетраСистемс.

Лихачёв Д. С. (1993). *Концептосфера русского языка*. Москва: Наука.

DAVLAT TILI: QONUNIY HIMOYA, XALQARO TAJRIBA VA MILLIY MAS'ULIYAT

Xusnidin XO'JANAZAROV*

Annotatsiya

Mazkur maqolada davlat tilining jamiyat taraqqiyotidagi o'рни va ahamiyati, qonunchilikda belgilangan huquqiy asoslar hamda ularni amalda qo'llashdagi muammolar keng yoritilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Davlat tili haqida"gi Qonun moddalariga tayanib, davlat tilida ish yuritishning zarurligi va uning millat kelajagiga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, Rossiya, Gruziya, Germaniya, Polsha va Fransiya kabi xorijiy davlatlarning tajribasi o'rganilib, undagi qat'iy javobgarlik choralari bilan o'zbek tilining huquqiy maqomini mustahkamlash zarurligi solishtirilgan. Maqolada tilni asrash faqat majburiyat emas, balki milliy g'urur va ma'naviy ehtiyoj sifatida qaralishi lozimligi ta'kidlanadi. Xulosa qilib aytganda, davlat tilining qonuniy himoyasini kuchaytirish va unga amalda to'liq amal qilish millatning o'zligini saqlash va kelajak avlodlarga ma'naviy merosni yetkazishda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so'zlar: davlat tili, qonunchilik, ona tili, milliy o'zlik, javobgarlik, huquqiy asos, ma'naviy meros, til siyosati, xalqaro tajriba, tilni asrash.

The State Language: Legal Protection, International Experience, and National Responsibility

Abstract

This article thoroughly explores the role and significance of the state language in the development of society, the legal foundations established in legislation, and the practical challenges in implementing them. Based on the Constitution of the Republic of Uzbekistan and the Law "On the State Language," the necessity of conducting official correspondence in the state language and its impact on the nation's future is analyzed. The experiences of foreign countries such as Russia, Georgia, Germany, Poland, and France are examined, comparing their strict legal accountability measures to highlight the importance of strengthening the legal status of the Uzbek language. The article emphasizes that protecting the language should not only be viewed as an obligation but also as a matter of national pride and spiritual necessity. In conclusion, strengthening the legal protection of the state language and ensuring its full implementation in practice is considered a crucial factor in preserving national identity and transmitting spiritual heritage to future generations.

* Quvasoy shahar hokimligi, xujanazarovxusnidin29@gmail.com

Keywords: state language, legislation, mother tongue, national identity, accountability, legal basis, spiritual heritage, language policy, international experience, language preservation.

Til – millatning ma’naviy ruhini, tarixiy xotirasini va o‘zligini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. Davlat tili esa mamlakat mustaqilligining ramzi, davlat suverenitetining kafolati hisoblanadi. Shu bois, har qanday jamiyatda davlat tilining huquqiy maqomini mustahkamlash va uni amaliy hayotda to‘liq joriy etish dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Davlat tili – oddiy aloqa vositasi emas. U millatning eng muqaddas qadriyati, tarixiy xotirasi, ma’naviy ruhi va kelajak sari eltuvchi yo‘lidir. Har qanday davlatning taraqqiyot darajasi ham, fuqarolarining o‘zligini anglash darajasi ham, avvalo, tilning jamiyatdagi o‘rniga bog‘liq. Shu bois davlat tiliga beparvo qarash – millat kelajagiga beparvo qarash demakdir. O‘zbekiston Respublikasida ham davlat tilining huquqiy asoslari mustahkam belgilangan bo‘lsa-da, amaliyotda uni to‘laqonli qo‘llash, xalqaro tajriba asosida yanada rivojlantirish masalalari alohida ilmiy izlanishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida belgilanishicha, O‘zbekistonda davlat tili o‘zbek tilidir. Shuningdek, “Davlat tili haqida”gi Qonunning 9-moddasiga muvofiq, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zarurat tug‘ilganda boshqa tillarga tarjima qilinishi ta’minlanadi. Shu bilan birga, qonunning 10-moddasida korxona, muassasa, tashkilot va jamoat birlashmalarida ish yuritish davlat tilida olib borilishi, ishlovchilarining ko‘pchiligi o‘zbek tilini bilmaydigan jamoalarda esa davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillardan ham foydalanilishi mumkinligi ko‘rsatilgan.

Afsuski, amaliyotda ayrim davlat tashkilotlarida ish yuritish hali-hanuz davlat tilida emas, balki boshqa tillarda olib borilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, davlat tiliga bo‘lgan e’tibor va hurmatning susayishiga olib kelmoqda. Bundan tashqari, ba’zi san’at vakillari yoki OAV namoyandalari nutqida til normalariga zid iboralarning ishlatilishi ham kuzatiladi. Bu holat ko‘plab yurtdoshlarimizni ranjitib, “nahotki, bu inson o‘zbek bo‘lsa” degan savolni uyg‘otadi. Albatta, demokratiya sharoitida har kim o‘zini erkin ifoda etadi, biroq omma oldida so‘zlayotgan shaxsning nutqi millionlab tomoshabinlarga ibrat bo‘lishi kerakligini unutmaslik lozim.

Amaldagi qonunchilikda esa ushbu normalarni buzganlik uchun aniq javobgarlik belgilanmagan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 42-moddasi “Davlat tili haqidagi qonun hujjatlarini buzish” deb nomlansa-da, u davlat organlari va tashkilotlarida ish yuritishda davlat tiliga oid talablarni to‘liq qamrab olmaydi.

So‘nggi sakkiz yilda Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimizda barcha sohalarda bo‘lgani kabi tilimiz